



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 31 - yanvar

VI-49-18-7-104-K/22

Toyloq tuman hokimligi

2022-yil fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklifni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo‘yicha Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2021-yil 30-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 155/29-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-yanvardagi 03/03-05-32/100-sonli ko‘rsatma xatiga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, qirq to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-yanvardagi 03/03-05-32/100-sonli ko‘rsatma xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2022-yil fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklif ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri (A.Sharipov), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (B.Kubayev) 2022-yil fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budjet jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilangan tartibda jamg‘armada shakllantirish hamda tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (N.Raxmatova) jamoatchlik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlar uchun nazarda tutilayotgan mablag‘lar miqdorini “Ochiq budjet” axborot portali hamda tumandagi mavjud ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilib borish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengashi Raisi



B.Babonazarov

Халқ депутатлари Тойлоқ туман Кенгашининг
2022 йил 31 январдаги
VI-49-18-7-104-К/22-сон қарорига
1-илова

2022-йил феврал ойида о‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklifni tasdiqlash to‘g‘risida

MA'LUMOT

							(so'mda)
№	2021-yil 3-chorak DROBQ hisobidan o‘tkazilgan 30 foiz mablag‘ miqdori	2021-yilda jamg‘armadagi yo‘naltirilmagan qoldiq summasi	TB jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘ bilan shartnomaga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg‘armaga qayta tiklash miqdori	2022 yil 1 yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilishi lozim bo‘lgan 30 foiz mablag‘ miqdori	2022-yil uchun tuman byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining jami 5 foizi miqdoridagi mablag‘ning yarimidan kam bo‘lmagan qismi		Jami fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun jamg‘armaga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori
					Jami 5 foiz	shundan fevral oyiga	
1	2 400 000 000	4 023 000	21 140,555	1 566 900 000	7 836 970 000	3 900 000 000	7 870 944 141